

**O‘ZBEK XALQ SHEVALARIDAGA OID AYRIM LEKSIK
BIRLIKLARNING MA’NOLARI XUSUSIDA**

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O‘zbek
tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Asatullayeva Munira Nizomiddin qizi

*Ilmiy rahbar: O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti*

Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek shevalariga oid ba’zi so‘zlarning izohlari berildi. Bilamizki, adabiy tilning asosini xalq shevalari tashkil qiladi. Adabiy tilni mukammal o‘rganishda dialektal so‘zlarni bilish muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib maqolada ayrim shevaga xos so‘zlarning ma’nolariga to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: xalq shevalari, dialektal so‘zlar, adabiy til, qipchoq lahjasi, qarluq lahjasi, o‘g‘uz lahjasi

Sheva bu - bir millatga mansub bo‘lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko‘rinishidir. Shevalarning bir-biriga yaqin bo‘lgan guruhlari lahja deb ataladi. Dialekt so‘zi esa sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi. Bilamizki, xalq shevalarining faqat og‘zaki shakli mavjud. Shevaning adabiy tildan fonetik (ya’ni tovush), leksik (ya’ni so‘z), grammatik (ya’ni qo‘shimcha) va gap qurilishi jihatdan farqlanadi. O‘zbek milliy tili tarkibida uchta lahja bor bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Qarluq lahjasi. Bu lahjaga Farg‘ona va Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Farg‘ona shevasi morfoligik jihatdan adabiy tilga asos bo‘lgan. Umuman olganda, adabiy til barcha shevalarga tayanadi.

Qipchoq lahjasi. Bu O‘zbekistonning barcha viloyatlarida mavjud. Ular, asosan, qishloqlarda tarqalgan, ya’ni Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston, Turkmanistonning viloyatlarida tarqalgan. Uning belgilarini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

Y o‘rniga j ishlatiladi: yo‘l-jo‘l, yo‘q-jo‘q;

G‘ o‘rniga v ishlatiladi: tog‘-rov, sog‘-sov;

O‘g‘uz lahjasi. U Janubiy Xorazm, Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qoshko‘pir kabi tumanlaridagi bir qancha shevalarni o‘z ichiga oladi. Ularning belgilari:

Unlilar qisqa va cho‘ziq aytiladi; ad hayvonlar, a:d ismlar, t tovushi d, k tovushi esa g tarzida aytiladi:

Tog‘-dog‘, keldi-galdi; -ning qo‘shimchasi -ing tarzida, -ga qo‘shimchasi esa -a, -na, tarzida aytiladi: yoringa-yorima.

Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida o‘rni bilan o‘sha zamondagi turk lahja va dialektlari o‘rtasidagi farqlar, ularning fonetik, leksik, morfologik xususiyatlarini bayon etadi. Ularni yetakchi dialektlardan farqli jihatlarini qayd etib o‘tadi. U lahjalarga tegishli so‘zlarni sanab chiqadi. Ular:

Ayaq-idish, kosa; (o‘g‘uzlar buni bilmaydilar. Ular o‘rniga “chanak” deydi).

Professor Hasanboy Jamolxonov lahja va sheva tushunchalariga quyidagicha ta‘rif beradi: “Lahja-fonetik, leksik va grammatik umumiylik asosida birlashgan shevalar yig‘indisi. U dialekt nomi bilan ham ataladi. Sheva - muayyan tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik bo‘lgan eng kichik qismi”. [1:18]

Quyida ayrim so‘zlarning izohlari berilgan.

ECHKITOL (Salix songarica Aders.) Bo‘yi 8-10 metr ga yetadigan, shoxlari ingichka, yosh novdalari sarg‘ishroq, barglari tuksiz, silliq bo‘lgan, barg yozishdan oldin gullaydigan, toldoshlar oilasiga mansub daraxt. Echkitol aprel oyida gullaydi. (Q. Haydarov, Q. Hojimatov, O‘zbekiston o‘simliklari). [2:108]

FOYMACHUMCHUQ Jiblajibon. Yo‘lning chap Tomoni unga yondosh cho‘zilib ketgan qizg‘ish jar, jar tubida suv miltiraydi, u yerdan fotmachumvhuq va cho‘pondag‘ich qushining chiq-chiq, qiyiq-qiyiq ovozlari keladi. (Shukur Xolmirzayev, O‘n sakkizga kirmagan kim bor). Keyin qoratolning shabada har birini alohida mehr bilan silab, har birini shivir-shivir jo‘rovoz kuylayotgan barglari orasida maydagina moviy fotmachumchuqni ko‘rib, rosa to‘lqinlanib ketdim. (Ahmad A‘zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar). Tog‘larida kaklik, bedana, burgut, qiyg‘ir, ko‘k kabutar, qora qarg‘a, zog‘chalar, so‘fito‘rg‘ay, sassiqpopishak, musicha, qumri, chumchuq, fotmachumchuq, loyxo‘rak, yoz va bahor oylarida qaldirg‘ochlar, zarg‘aldoqlar, bulbullarni uchratish mumkin. (Pirnazar Davronov, Samarqand Jomi). Ko‘lvor ilon ham ertalab xo‘rak dardida inidan sudralib chiqqan, o‘zini merovlikka solib zarang shoxida sayrayotgan fotmachumchuqqa tashlanish uchun payt poylab yotardi. (Hamid Alp, Qo‘nalg‘a). [2:108]

GABA. (Qashqadaryo) Erta tug‘ilgan uy hayvoni. Ko‘ganda gaba qo‘zilar, Iydirib bo‘yni cho‘zilar. Jamrashganida mangrashib, Emacha bovring ezilar. (Hol Muhammad Hasan, O‘lan). [2:108]

GAJGAL G‘adir-budur. Ovulimizning tog‘ tarafida turli ko‘rinishdagi qoyalar, gajgal toshlar orasida buloq bor. (Isak Sattorov, Sehrli tosh). Ammo semizgina shoxdor to‘xcha to‘xtab ma‘raganicha, o‘zi istamagan holda gajgal tosh yoniga sudralib boraverdi. (Isak Sattorov, Vahimali chashma). [2:108]

QOSHIQDON Qoshiq solinadigan idish. Chol shogirdi bo‘lmish yoshgina, ozg‘in, juda sertavoze yigitning qo‘liga qoshiqdon-savatni berib, meva-chevaga yubordi-da, o‘zi poygahga cho‘kka tushib, mehmonlar kimlar v anima uchun

kelganliklari bilan ishi bo‘lmay bog‘ning tarixi to‘g‘risida so‘zlab ketdi. (Abdulla Qahhor, Kartina). O‘t oldida isinib o‘tirib, baliq tugadigan savat to‘qidi, ortib qolganidan katta non savat va qoshiqdon to‘qiy boshladi. (Orif Sodiqof, Tog‘dagi sarguzashtlar). [2:248]

QOVG‘A Mol terisidan tayyorlanadigan idish. Quduqlardan suv tortib olishda ishlatiladi. Tayyor bo‘lgan malhamni yaradan go‘ja bo‘lib ketgan boshimga hafsala bilan surib chiqdi. Oxirida, qalin surilkagan malhamning ustidan jumur kiydirib, chorsi ro‘mol bilan tang‘ib bog‘ladi. Boshim kichikroq qovg‘aning o‘zi bo‘ldi-qo‘ydi. (Soyim, Is‘hoq, Osmon ustuni). [2:248]

QOZIQBOV Qoziqqa bog‘lanadigan arqon. Devorga yaqin ustunga Bo‘tako‘zning arqonini qoziqbov qildim. (Anvar Suyun, Solin yo‘li). Yo‘lning ustidagi yakka qayrag‘ochga yetib to‘riq g‘unondan tushibdi, nariroqdagi jing‘ilning to‘moriga qoziqbov solib mahkam bog‘labdi-da qayrag‘ochning soliqroq joyini o‘nglab, sallani boshiga qo‘yib uyquni uraberibdi. (Hamid Elxon, Maynagul). [2:248]

QOZON: o‘pkasi qozondek arazlamoq, xafa bo‘lmoq. Ziqna laqabli Bekmirza boyning to‘ni teskari, katmanlik og‘aynilardan o‘pkasi qozondek. (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya). [2:248]

QOZONYUVG‘ICH Suv yuzasida suzadigan, uzun oyoqli hasharot. Qozonyuvg‘ich o‘zidan ikki barobar uzun oyoqlarini suv yuziga tiragan holda pirillab uchayotganga o‘xshaydi, shu sabab ba‘zilar uni uchadi, boshqalar esa suzadi, deydi. (Muhammadsharif, Tolko‘prik). [2:248]

QOSH (Xorazm) Bosh to‘sin. Tirnoqqa (o‘sha davr imoratlariga xos poydevor)qancha yog‘och kerakligi, katta sayisxona uchun qancha gazlik qosh-bosh to‘sin, hokazo va hokazolar haqida uzuq-yuluq gaplar bo‘ldi. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). [2:248]

Shevalardan o‘rinli foydalanish badiiy ijodning, umuman, nutqning badiiyligini, uslub-fazilatlarini, ta‘sirchanligini oshiradi. Lekin shevalarning ishlatilish doirasi va me‘yori chegaralangan. Shevalarni faqat badiiy va so‘zlashuv uslubida qo‘llash mumkin. Shevalar tilining jonli shakli va adabiy tilning asosiy boyish manbayidir. Shevaning ham, adabiy tilning ham o‘ziga yarasha o‘rni, ahamiyati iste‘mol doirasi bor. Hech biridan ham voz kechib bo‘lmaydi. Shevalarni asrash, kundalik hayotda, folklorda, san‘atda, TVda, internetda, kinoda musiqada ulardan faol foydalanish lozim. Sheva o‘z iste‘mol doirasini kengaytirayapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Jamolxonov H. A. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. – T.: “Talqin”, 2005. 260 b.
2. “O‘zbek xalq so‘zlari”. Toshkent, 2023, 247 b.
3. S. Ashirboyev. “O‘zbek dialektologiyasi”. – Toshkent. 2013.